

INNOVATSION IQTISODIYOTDA TIBBIY XIZMATLAR BOZORINING TASHKILY-HUQUQIY VA IQTISODIY ASOSLARI

Baxtiyorova Vasilaxon Muzaffarovna

Ma'mun Universiteti

Iqtisodiyot yo'nalishi 2-kurs talabasi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.20807401>

Annotatsiya. Ushbu maqolada tibbiy xizmat ko'rsatishni tashkil etishda xorijiy mamlakatlarning tajribalarini qo'llash orqali mamlakat sog'liqni saqlash tizimida xizmatlar sifati, kafolatlanganligi va ularning samaradorligi o'rganilgan.

Kalit so'zlar: sog'liqni saqlash, tibbiy faoliyat, tibbiy xizmat, ijtimoiy samara, iqtisodiy samara, Beveredj tizimi, Bismark tizimi.

Abstract. This article studies the quality, guarantee and effectiveness of services in the country's healthcare system using the experience of foreign countries in organizing medical services.

Keywords: healthcare, medical activities, medical services, social impact, economic impact, Beveridge system, Bismarck system.

Аннотация. В данной статье исследуются качество, гарантии и эффективность услуг в системе здравоохранения страны на основе опыта зарубежных стран в организации медицинских услуг.

Ключевые слова: здравоохранение, медицинская деятельность, медицинские услуги, социальное воздействие, экономическое воздействие, система Бевериджа, система Бисмарка.

Kirish. Bugungi kunda mamlakatimiz Yangi O'zbekistonni qurish yo'lida yangi strategik iqtisodiy va ijtimoiy islohotlarni amalga oshirmoqda. Mamlakatimizda xam uzoq yillarga mo'ljallangan Taraqqiyot strategiyasiga asosan aholi turmush darajasini yaxshilash, sog'ligini saqlash va turmush sifati oshirish tizim boshqarishini takomillashtirish bu sohalaridagi asosiy maqsadlardan sanaladi. Jamiyatda sog'lom turmush kechirishning muhim asoslaridan biri har bir shaxs Bevosita tibbiy xizmatlardan to'laqonli foydalanishdan manfaatdor bo'lishi lozim. Sog'liqni saqlash tizimida sifatlil TXBni tashkil etish va uni boshqarishni ta'minlashga alohida e'tibor qaratilmoqda.

Mavzuga oid adabiyotlar taxlili. TXB ining rivojlanishi aholining tibbiy xizmatlardan foydalanish xususiyatlari va imkoniyatlari bilan bog'liq nazariy-uslubiy masalalariga xorijlik iqtisodchi olimlardan, J.K.Arrow, R.B.Saltman, J.Figeras, E.Pittasso M.Saynor xizmatlar sohasida sog'liqni saqlash tizimi xususiyatlarining ayrim masalalari MDHlik olimlardan I.M.Lifits, A.V.Dubinina, YU.M.Komarov, Y.M.Belyaev, E.M.Chernenko, I.V.Taranova, R.M.Shagiaxmetovlarning ilmiy ishlarida tadqiq etiladi. Bevosita respublikamizda TXB ini rivojlantirish, moliyalashtirishning ayrim masalalari mahalliy olimlarimizdan M.T.Haydarov, O'.Rajabov, M.Kasimov, M.N.Umurzaqova va boshqalarning ilmiy ishlarida qarab chiqilgan[1].

Tadqiqot metodologiyasi. Tadqiqot jarayonida taxlillar, analizlar, solishtirma taxlillar, statistik va ijtimoiy so'rovnomalarning natijalari keltirib o'tilgan.

Taxlil va natijalar. TXBni rivojlanishi va uning xizmatlar bozorida talab va taklifning yuzaga kelishi tibbiy xizmatlarni rivojlantirish uchun yaratilgan huquqiy asoslarga, uning qonun tomonidan qanchalik mustahkam ximoya qilinganligiga bog'liqdir. Albatta yana davlat tibbiyot tarmog'ini qanchalik tashkiliy jixatdan muqobil shakllanishini qo'llab quvvatlashi

muhim o'rin tutadi. Keyingi yillarda O'zbekistonda tibbiyot sohasiga oid ishlab chiqilgan qonun va qonun osti hujjatlari asosan tibbiy xizmatlar samaradorligini oshirish, moliyalashtirishning qo'shimcha mablag'larini aniqlash, soha resurslaridan oqilona foydalanib keng ko'lamli tibbiy xizmat ko'rsatish kafolatini ta'minlash, tibbiy xizmat ko'rsatuvchilar va ulardan foydalanuvchilarning xuquq, vazifa va burchlarini aniqlash va ximoya qilish xukumatimiz e'tiboridagi dolzarb masalalardan bo'lmoqda. Shuningdek aholining qulay va sifatli tibbiy xizmatlardan foydalanishi ta'minlash, tibbiy xizmatlar soxasiga yangi tibbiyot texnologiyalarini joriy qilish, aholining tibbiy xizmatlarga bo'lgan ehtiyojini qondirish, tibbiy xizmatlarni umumjaxon darajasida ko'rsatilishini ta'minlash kabi ustuvor yo'nalishlarga alohida e'tibor qaratildi.

Ma'lumki, bozor munosabatlari sharoitida tibbiyot sohasining har qanday mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish darajasi nafaqat tibbiy xizmat taklifini, balki ushbu xizmatlarga bo'lgan talabning shakllanganligi va ularning muvofiqligini ta'minlay olish imkoniyatlari bilan belgilanadi. Aholining tibbiy xizmatlarga bo'lgan talabi ushbu soxada keyingi yillarda kuzatilayotgan o'zgarishlar tufayli keskin ortib bormoqda. Aholi salomatligi hayot tarzi va turmush kechirish shart- sharoitlari, atrof-muhitning holati, tibbiy xizmatlarning samaradorligi va sifati kabi bir qator omillarga bog'liq bo'lib, iqtisodiy jihatdan rivojlangan va rivojlanayotgan mamlakatlarda ITT yutuqlarigi tayangan zamonaviy tibbiy innovatsiyalardan foydalanishga katta zarurat tug'ildi. Bu bilan, davlat aholining sifatli turmush kechirishiga, ularning shahsiy daromadi va tibbiy xizmatlarga bo'lgan ehtiyoji o'rtasida uzviy bog'liqlikni inobatga olgan holda, tibbiy xizmatlarga ehtiyoj darajada ta'minlashni nazarda tutadi. Mustaqil O'zbekistonda tibbiy xizmat ko'rsatishni tashkil etish va boshqarish tizimida ishlab chiqilgan dasturlar doirasida sezilarli ishlar amalga oshirildi. Ayniqsa keyingi yillarda mamlakatda pullik va bepul tibbiy xizmatlarga belgilangan baholarning holatini nazorat qilish va ularni davlat davolash-profilaktika muassasalari tomonidan kafolatlangan tarzda ko'rsatilishi, dastlabki yillardagi "Fuqarolar sog'ligini saqlash to'g'risida" gi qarorda o'z aksini topgan. 1998-yil 10-noyabrdagi "Sog'liqni saqlash tizimini isloh qilish Davlat dasturi to'g'risida"gi PF-2107-sonli Farmonida asosan, aholining imtiyozli bepul tibbiy xizmatlardan foydalanuvchi toifalari belgilab berildi. Farmonda asosan, Vazirlar Mahkamasining tegishli qarori bilan ambulator sharoitda bepul dori-darmon bilan ta'minlanadigan; onkologil kasalliklar, zaxm, sil, puxiy, giyoxvandlikka ixtisoslashgan shifoxonalarda yuqumli kasalliklar, OIV kasalliklari, endokrinologik kasalliklar tibbiy xizmatlardan bepul foydalanadilar. Stasionar sharoitda bepul tibbiy xizmatlardan; bolalikdan nogironlar, 2-3-gurux nogironlari, yetimlar, 1941-1945-yillar urush qatnashchilari va ularga tenglashtirilganlar yolg'iz pensionerlar, 1941-1945-yillarda mexnat fronti qatnashchilari, Baynalminalchi jangchilar, chepnobel AEC xalokati qatnashchilar, 17 yoshgacha bo'lgan o'smirlar, 18-27 yoshdagi harbiy xizmatga yo'llanuvchilar foydalanishlari mumkin. Yuqoridagilarga qo'shimcha tarzda davlatimiz tomonidan kafolatlangan tibbiy xizmatlar tashkil etilib, hududiy sog'liqni saqlash boshqarmalari tomonidan maxsus yo'llanmalar order berish kabi imtiyozlarni ham ishlab chiqilgan. O'zbekiston Respublikasining "Aholining sanitariya-epidemologik hotirjamligi to'g'risida"gi, "Yod tanqisligi kasalliklari profilaktikasi to'g'risida" gi, "2014-2018-yillarda "O'zbekiston axolisining peppoduktiv salomatligini mustahkamlash onalar bolalar va o'smirlar sog'ligini muhofaza qilish borasida Davlat dasturi to'g'risida" PQ-2221-sonli qarorlari qabul qilindi. Qarorga asosan, 2014-2018-yillarda O'zbekiston Respublikasida tibbiy xizmatlar bozoriga pog'anasimon investitsiya dasturlarini

jalb qilish va aholining tibbiy xizmatlardan doimiy qulay va samarali tashkil etilishini nazarda tutadi. Bundan tashqari, qarorga ko'ra, xususiy tibbiyot sohasiga quyidagi imtiyozlar berilgan:

Birinchiidan, qishloq joylarida tibbiy xizmat ko'rsatish sohasida tashkil etilgan yangi mikrofirmalar va kichik korxonalar 10 yil muddatga yagona soliq to'lovlaridan ozod etilishi;

Ikkinchiidan, xususiy tibbiy muassasalarga litsenziya berish ishlarini soddalashtirish;

Uchinchiidan, litsenziya berish uchun davlat bojini EKIHning 10 barobaridan 5 barobarigacha kamaytirish;

To'rtinchiidan, tibbiyotdagi KBXT sub'ektlari davlat mulkiga ijara to'lovlari eng kam stavkasini 20 foizga qisqartirish.

Beshinchiidan, xorijiy investitsiyalarni jalb qilish hisobidan tibbiy xizmat ko'rsatish hajmini kengaytirish va tibbiyot texnologiyalarini lizingga berish.

Oltinchiidan, xususiy tibbiy xizmat ko'rsatishni qo'llab-quvvatlash maqsadida iste'mol kreditlarini taqdim etish.

Yettinchiidan, tibbiyotning xususiy sohasiga yuqori malakali xorijiy mutaxxasislarni jalb qilib, mehnat faoliyati natijasida olingan daromadlarining jismoniy shaxslarning daromad solig'i va yagona ijtimoiy to'lovlardan ozod etilishi belgilab qo'yildi. 2021 yil 5 maydagi "Sog'liqni saqlash tizimida olib borilayogan islohotlarni izchil davom ettirish va tibbiyot xodimlarining salohiyatini oshirish uchun zarur shart-sharoitlar yaratish to'g'risida"gi PQ-6221 sonli Qaroriga ko'ra, OSHPlar va OPlarda "tibbiy brigadalar" faoliyatini yo'lga qo'yish va tibbiy xizmatlar sifatini oshirish uchun 2021 yil 1 iyuldan 10 mingta va 2022 yil 1 yanvardan esa yana qo's-himcha 10 mingta o'rta tibbiyot xodimlari shtatlari ajratildi. Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti SH.Mirziyoevning Bevosita rahbarligida aynan sog'liqni saqlash sohasini isloh qilish va ixtisoslashgan tibbiy xizmat turlarini rivojlantirish bo'yicha o'tkazilgan bir qator videoselektop yig'ilishlarida 1 ham sohadagi yechimini kutayotgan dolzarb vazifa va topshiriqlar belgilab berilib, bugungi kunda ijrosi ta'minlangani holda ushbu tashkiliy-huquqiy mexanizmlar ham tibbiy xizmatlar sifatini oshirish hamda tibbiy xizmatlar bozorining rivojlanishiga o'ziga xos huquqiy rag'bat bo'lib kelmoqda.

Adabiyotlar, References, Литературы:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 1 apreldagi "Sog'liqni saqlash sohasida xususiy sektorni yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-2863 sonli qaror. \\lex.uz
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 7 dekabrda "O'zbekiston Respublikasi sog'liqni saqlash tizimini tubdan takomillashtirish bo'yicha kompleks chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-5590 sonli qaror. \\lex.uz
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 12 oktyabrda "O'zbekiston Respublikasi xalq tabobati sohasini tartibga solish chora-tadbirlari to'g'risida" 3968- sonli Qaror. \\lex.uz
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021 yil 25 maydagi Sog'liqni saqlash sohasini kompleks rivojlantirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risidagi PQ-5124 sonli qaror. \\lex.uz

5. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021 yil 26 iyuldagi "Aholiga ko'rsatilayotgan tibbiy yordam sifatini yanada yaxshilash chora-tadbirlari to'g'risida"gi qaror. \lex.uz
6. S.Raximova .Innovatsion iqtisodiyotda tibbiy turizmni rivojlantirishning o'ziga hos xususiyatlari. "Milliy yuksalish va yoshlarning ijtimoiy va sisiy faolligini oshirishning dolzarb masalalari" mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy anjuman.25 aprel.2020 yil.
7. S.Raximova. The importance of developing the market of medisal service in an innovative esonomy. Intercultural communication through the prism of tourism in Uzbekistan : experience, current , issues and perspestives.Samarkand 29-30 June 2020.

